

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI, SHAKLI VA METODLARI

*Qoraqalpog'iston Respublikasi
Pedagogik Mahorat markazi Maktabgacha,
boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi
Baytileuova Gu'izar Maxset qizi*

Annotatsiya: Bu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar mazmuni, shakli va metodlari haqida so'z boradi. Maktabgacha ta'limdagi mashg'ulotlar mazmuni, birinchi navbatda, davlat ta'lim standartlari va namunaviy dasturlarga asoslanadi. Bu mazmun bola atrofidagi olamni tanish, uni anglash, o'z fikrini bayon etish, o'ziga xizmat ko'rsatish, boshqalar bilan hamkorlikda ishlash va ijodiy faoliyat ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. Maktabgacha ta'lim mazmuni bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularning sog'lom, bilimdon, madaniyatli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются содержание, формы и методы обучения в дошкольных образовательных учреждениях. Содержание занятий в дошкольном образовании в первую очередь основывается на государственных образовательных стандартах и типовых программах. Это содержание направлено на ознакомление ребенка с окружающим миром, его понимание, выражение своего мнения, самообслуживание, совместную работу с другими и творческую деятельность. Содержание дошкольного образования служит подготовке детей к школьному образованию, обеспечению их здоровья, знаний, культуры.

Abstract: This article examines the content, forms, and methods of teaching in preschool educational institutions. The content of classes in preschool education is primarily based on state educational standards and standard programs. This content is aimed at familiarizing the child with the surrounding world, their understanding, expressing their opinion, self-care, working together with others, and creative activity. The content of preschool education serves to prepare children for school education, ensuring their health, knowledge, and culture.

Kalit sózlar: Maktabgacha ta'lim, metod, mashg'ulot, malaka, ko'nlikma, rivojlanish, ta'rbiyachi, bilim.

Ключевые слова: Дошкольное образование, метод, занятие, навык, привычка, развитие, воспитатель, знание.

Keywords: Preschool education, method, activity, skill, habit, development, educator, knowledge.

Maktabgacha ta'lim — shaxsning intellektual, ijtimoiy, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga asos bo'luvchi eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan mashg'ulotlar bolalarning yosh xususiyatlariga, ehtiyoj va qiziqishlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. Bunda mashg'ulotlarning mazmuni, ularning tashkiliy shakllari va pedagogik metodlari markaziy o'rinni egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ijtimoiy muhitda o'zini tutish qoidalari, muloqot madaniyati, mehnatga munosabat, mustaqil fikrlash, estetik did va boshqa shaxsiy sifatlarni rivojlantirish mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limdagi mashg'ulotlar mazmuni, birinchi navbatda, davlat ta'lim standartlari va namunaviy dasturlarga asoslanadi. Bu mazmun bola atrofidagi olamni tanish, uni anglash, o'z fikrini bayon etish, o'ziga xizmat ko'rsatish, boshqalar bilan hamkorlikda ishlash va ijodiy faoliyat ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. Maktabgacha ta'lim mazmuni bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularning sog'lom, bilimdon, madaniyatli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlar tarkibida bolalarning nutqiy rivojlanishi, matematik tasavvurlari, atrof-muhit haqidagi bilimi, jismoniy chiniqishi, estetik dunyoqarashi, axloqiy sifatlari, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari kabi jihatlar qamrab olinadi. Bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun barcha ta'limiy yo'nalishlar bir-birini to'ldirgan, uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Har bir mashg'ulotda bolaning faolligi, mustaqilligi, fikrlashi va ijodiy yondashuvi rag'batlantiriladi. Pedagog esa boshqaruvchi emas, yo'naltiruvchi rolini bajaradi.

Mashg'ulotlar shakli deb, pedagogik jarayon qanday tashkiliy ko'rinishda tashkil etilishini tushunamiz. Bu shakl tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi munosabatlar, bolaning faolligi darajasi, mashg'ulot o'tkazish muhitiga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha ta'limda eng ko'p uchraydigan shakllar an'anaviy (klassik) shakl, o'yin shaklidagi mashg'ulot, integrallashgan mashg'ulot, ekskursiya yoki sayr shaklidagi mashg'ulot, ijodiy faoliyat shakllari va markazlar asosidagi (erkin faoliyat) shakllardir. An'anaviy mashg'ulotlarda mashg'ulotning barcha qismlari oldindan rejalashtirilgan bo'lib, bolalar faoliyati pedagog tomonidan nazorat qilinadi. O'yin shaklidagi mashg'ulotlar esa bolalarning qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirokchi sifatida jalb etadi. Integrallashgan mashg'ulotlar bir nechta yo'nalishni birlashtirgan holda, bolaga murakkab hayotiy holatlarni yaxlit idrok etish imkonini beradi.

Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan metodlar esa mazmun va shaklni amalga oshirish vositasidir. Maktabgacha ta'limda metodlar turli bo'lishi mumkin: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, o'yin usullari, innovatsion va interfaol metodlar. So'zli metodlarga suhbat, hikoya qilish, savol-javob, tushuntirish kiradi. Bu metodlar bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, bilimlarni ongli o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ko'rgazmali metodlarda bolalar rasmlar, predmetlar, videotasvirlar orqali bilib

oladilar. Amaliy metodlar bolalarning mustaqil bajaradigan harakatlari, yasash, tajriba o'tkazish, qurish orqali ularni faol o'rgatadi. O'yin metodlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng tabiiy va samarali metodlardan biridir. Didaktik o'yinlar orqali matematik tushunchalar, til va nutq ko'nikmalari, mantiqiy fikrlash rivojlanadi. Rolli va dramatik o'yinlar esa bolalarning tasavvuri, ifodali nutqi, hissiyotlarini namoyon etish imkonini beradi.

Bugungi kunda pedagogik jarayonga zamonaviy yondashuvlar — interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, STEAM yondashuvi, loyiha asosidagi ta'lim keng joriy qilinmoqda. Interfaol metodlar bolalarni faollikka chorlaydi, mustaqil fikrlashga undaydi. Masalan, "Aqliy hujum", "Insert", "Venn diagrammasi", "Fikrlar xaritasi", "Bilaman – Bilmoqchiman – Bilaman (BBB)" usullari bolalar tafakkurini faollashtiradi. STEAM yondashuvi orqali fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiyalashgan holda o'rganishga yo'l ochiladi. Loyiha asosidagi o'qitishda esa bolalar kichik guruhlarda muammoni hal etish orqali tajribadan o'rganadilar.

Yaxshi tashkil etilgan mashg'ulot bolaga nafaqat bilim beradi, balki ularning hayotiy kompetensiyalarini shakllantiradi, hayotga tayyorlaydi, muloqotga, hamkorlikka, ijodkorlikka o'rgatadi. Shu sababli mashg'ulotlarning mazmuni dolzarb, amaliyotga yaqin, qiziqarli, ijtimoiy foydali bo'lishi kerak. Tarbiyachi esa har bir mashg'ulotni puxta rejalashtirib, bolalarning ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqib tashkil etishi, bolani diqqat bilan kuzatib borishi, uning rivojlanishini baholashi zarur.

Maktabgacha yosh – shaxs shakllanishining ilk va eng muhim bosqichidir. Bolalik davrida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va tarbiyaviy ta'sirlar butun hayot davomida insonning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan mashg'ulotlar har tomonlama puxta tashkil etilishi, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi zarur. Bu jarayonda mashg'ulotlarning mazmuni, shakli va metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, shuningdek, shaxs sifatida shakllanishlariga xizmat qiladi. Mashg'ulotlarning mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlari — bu ta'lim-tarbiyaning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida an'anaviy usulda ta'lim-tarbiya berishning shakli, mazmuni, metodi va metodikasi ko'plab adabiyotlarda bayon etilgan. Xususan, P.Yusupova ta'lim shakli haqida quyidagilarni yozadi: "Ta'lim shakli deganda, ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus ishlangan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi. V.I.Loginova, P.G.Samorukovalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha keng ma'lumot berganlar, xususan, mashg'ulot maktabgacha ta'lim

tashkilotlarida ta'lim jarayonining yetakchi shakli ekanligi, uning mazmuni va tuzilishi, uni tashkil etish, boshlanishi, borishi, yakuni va boshqalar ko'rsatilgan.

Ta'limning asosiy shakli mashqdir. Mashg'ulotlarda bola o'z nutqini tarbiyachining namunali nutqi bilan taqqoslashga, boshqa bolalar bilan o'quv materialini bajarishga, ya'ni tarbiyachining tushuntirishini, hikoyasini tinglashga, birgalikda rasmlarni, diafilmlarni ko'rishga, gaplashishga, didaktik o'yinlarda qatnashishga, birgalikda kuylashga, musiqa tinglashga, ma'lum bir obyektga diqqatini qarata olishga, navbat bilan gapirishga o'rganadi.

Ona tili o'rgatish mashqlarini didaktik maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin: yangi materialni aytuvchi mashqlar, bilim, ilmiy tajriba va ko'nikmalarni mustahkamlovchi mashqlar, bilimlarni umumlashtiruvchi va bir tizimga soluvchi mashqlar, yakunlovchi yoki tekshiruvchi, sinovchi aralash mashqlar.

Bolalar bog'chasida avval hosil qilingan bilim, ko'nikma va ilmiy tajribalarni mustahkamlaydigan mashqlardan keng foydalaniladi. Masalan, sayohatlari haqida hikoya qilib berish, sport zali haqida suhbat, avval o'qib yoki hikoya qilib berilgan ertak yoki hikoyani qayta so'zlab berish, avval yod olgan she'rlarini takrorlash. Bilimlarni umumlashtiruvchi va bir tizimga soluvchi mashqlar. Bu mashq turi o'zining mazmuni jihatidan avval hosil qilingan bilim, ko'nikma va ilmiy tajribalarni mustahkamlaydigan mashq turiga yaqinroqdir.

Katta guruhlarda ona yurt, kattalar mehnati, transport haydovchisi mehnati, kitoblar haqida umumlashtiruvchi suhbat o'tkaziladi. Bunda bolalar oldiga materialni maqsadga yo'naltirgan holda esga olish vazifasi qo'yiladi. Umumlashtiruvchi tipdagi mashqlar bolalarda tafakkurni, analitik-sintetik faoliyatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Hisobga oluvchi mashqlardan tasviriyl faoliyatda keng foydalaniladi. Biroq bu mashq turi bolalarning ona tili bo'yicha bilim va ilmiy tajriba darajalarini aniqlash uchun zarur hisoblanadi.

Ayrim bilimlar bo'yicha sinov mashg'ulotlarini o'quv yilining boshida guruhga yangi qabul qilingan bolalarning bilimini aniqlash maqsadida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Qilingan ishlarga yakun yasash maqsadida yil oxirida ham sinov tekshiruv mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'proq aralash turdagi mashqlardan foydalanish joriy etilgan. Masalan, bir mashg'ulotning o'zida bolalarni yangi bilim beradigan material bilan tanishtiriladi, ilgari hosil qilingan bilim takrorlanadi va mustahkamlanadi. Nutq o'stirish mashqlari alohida xususiyatlarga ega bo'lib, ba'zan mashg'ulotni o'tkazishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Tasviriyl faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'ulotlarida hamma bolalar birdek faol, lekin nutq o'stirish mashg'ulotida hamma bolalar ham faol qatnashmaydi. Rasm asosida hikoya tuzish, savollarga javob berish, qo'shiqni yoddan aytib berish

kabi topshiriqlar bo'yicha ayrim bolalar javob beradilar, qolganlari esa o'rtoqlarining javobini to'ldiradilar. Mashg'ulot vaqti cheklanganligi sababli, har bir bola bilan alohida shug'ullanish imkoni yo'q. Shu sababli mashg'ulotlarda yuqori natijalarga erishish uchun ularni umumiy didaktik talablarga javob beradigan qilib tashkil etish kerak.

Har bir tarbiyachi mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi didaktik talablarga qat'iy rioya qilishi kerak:

1. Mashg'ulotga oldindan puxta tayyorlanish, uning mazmunini, ta'lim usullarini aniqlash. Bunda ona tili bo'yicha bolalarning bilim va ilmiy tajribalari aniq bo'lishi kerak. Belgilangan dastur materialini o'rganish uchun zarur bo'lgan stilistikalar va usullar tanlanadi, mashg'ulotning tuzilishi va borishi oldindan o'ylab olinadi. Kerakli ko'rgazmali qurollar, o'quv jihozlari tayyorlab qo'yiladi, individual (shaxsiy) ta'lim vazifalari aniqlanadi (shaxsiy beriladigan topshiriqlar, bolalarni javob berishga chaqirish navbati belgilanadi).

2. Intellektual faoliyat bilan bandlikni to'g'ri taqsimlash (intellektual zo'riqishni oldindan belgilash). Tarbiyachi ta'limning rivojlantiruvchi tamoyiliga amal qilib, bolalardan intellektual faollikni talab etuvchi, murakkab vazifalar beradi.

3. Mashg'ulotning tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi.

Nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limning tarbiyaviy jihati ham hisobga olinadi. Bolalar tomonidan ona tilini o'rganish, uning boyligi, jozibador jihatlarini bilib olish vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda yordam beradi. Ijtimoiy-tarixiy hayot voqealari Alisher Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi va boshqalar haqidagi hikoyalar axloqiy tuyg'ular bilan bog'liq bo'lib, ular bolalarni ona-Vatanga muhabbat, baynalmilallik, jamoaviylik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

4. Mashg'ulotning ko'tarinkilik xarakteriga egaligi. Mashg'ulotni boshlashdan oldin bolalarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni, yangilikni bilib olishga bo'lgan qiziqishni vujudga keltirish kerak. Mashg'ulot bolalarda qiziqish hissini uyg'otishi kerak.

5. Ta'lim metodlarini mashg'ulotning tuzilishiga ko'ra tanlash.

Mashg'ulotning tuzilishi oldindan aniq qilib belgilab qo'yilishi kerak. Mashg'ulotning boshida yangi material bilan tanishtirishda oldingi mashg'ulotlarda o'rganilgan materiallar esga olinib, uni bolalar tajribasi bilan bog'lanadi.

6. Mashg'ulotning barcha bosqichlarida har bir bolaning nutqiy faolligini o'stirish. "Nutqiy faollik" bolaning butun mashg'ulot davomida hammaga eshitaladigan qilib gapirishi emas, balki pedagogning va tengdoshlarining nutqini faol tarzda qabul qilishi va uni tushunishidir. Imkoniyatga qarab ko'proq bolalarning ovoz chiqarib gapirishlari, faol gapirishlari uchun sharoit yaratib berish kerak.

7. Ta'limning jamoaviy xarakter kasb etishini bolalarga individual yondashuv bilan birga olib borish. Ishning frontal shakli - bu umumiy topshiriqlar, umumiy ritm, xor

bo'lib javob berish va boshqalardir. Bular esa, o'z navbatida, bolalarga beriladigan alohida topshiriqlar bilan birga olib borilishi kerak. Tarbiyachi yakka (individual) topshiriq va usullarni tanlashda bolaning bilim darajasi va nutqiy malakasini, qiziqishini hisobga olishi kerak.

8. Mashg'ulotni to'g'ri tashkil etish. Nutq o'stirish bo'yicha mashqlar turli sharoitlarda tuzilishi mumkin. Ko'proq til o'stirish mashqlari guruhda o'rni kelganda ham o'tkaziladi. Shu bilan birga, qo'g'irchoq teatri, kinofilmlar, harakatli o'yinlar va boshqa mashg'ulotlar zalda o'tkaziladi. Mashg'ulot vaqtidagi muhit estetik talablarga javob berishi kerak.

9. Mashg'ulot natijalarini hisobga olish. Bolalar bilimi mashg'ulot jarayonining o'zida e'tiborga olinadi. Tarbiyachi mashg'ulot vaqtida bola nutqini kuzatib, uning javobini hisobga olib boriladigan daftarga qayd qilib qo'yadi. Ayniqsa, dasturning murakkab bo'limi hisoblangan hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha bolalarning javoblarini kundalikka yozib boradi. Bunday hisobga olish tarbiyachi uchun kelgusi faoliyat vazifalarini belgilab olishda yordam beradi.

10. O'tilgan materialni boshqa mashg'ulotlarda yoki boshqa faoliyatlarda mustahkamlash. Bu talab didaktik tamoyillardan biri takrorlash tamoyiliga asoslangan. Bu talabga amal qilish juda zarurdir. Chunki bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ish jarayonida murakkab intellektual ko'nikma va ilmiy tajribalar hosil bo'ladi. Bolalarga ona tilini o'rgatish boshqa mashqlarda ham (dastlabki matematik tasavvurlarni shakllantirish, musiqa, tasviriy faoliyat va hokazolarda) amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, bolaning turli faoliyatlarini tashkil etishda nutqning roli katta ekanligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mashg'ulotlar:

- bolalar uchun qiziqarli, maqsadli, tizimli va tarbiyaviy bo'lishi zarur;
- faqat bilim emas, balki har tomonlama rivojlanishni ta'minlashi kerak;
- tarbiyachi pedagog ijodkor, mehribon va pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim.

To'g'ri tanlangan mashg'ulot mazmuni, shakli va metodlari orqali bolalar ongli, faol, ijtimoiylashgan, mustaqil fikrlaydigan shaxs bo'lib shakllanadi.

Yakun qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar mazmuni, shakllari va metodlari — bu pedagogik mahoratning mezoni, ta'lim sifati va bola shaxsining rivojlanish garovidir. Har bir mashg'ulot bolaning hayotidagi muhim qadamlardan biridir. Demak, har bir tarbiyachi pedagog bu vazifani chin dildan, yuksak mas'uliyat bilan ado etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim davlat standarti.** – Toshkent, 2023.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun **“Ilk qadam” o‘quv dasturi**. – Toshkent: 2022.
3. Toshmuhamedova S.M., Xolboyeva N.O. **Maktabgacha ta'lim pedagogikasi**. – Toshkent: TDPU, 2021.
4. Qurbonova Z.M., G‘aniyeva G.X. **Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlar metodikasi**. – Toshkent: 2020.
5. Matjonova D., Normurodova M. **Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
6. Jumayev A., Ashurova M. **Maktabgacha ta'lim psixologiyasi**. – Toshkent: 2019.
7. Zunnunova Z.A. **Innovatsion pedagog texnologiyalar**. – Termiz: 2020.
8. Vengrer L.A., Elkonin D.B., Zaporozets A.V. **Bolalar faoliyatining psixologik asoslari**. – Moskva: Pedagogika, 1985.
9. Smirnova E.O. **Psixologiya doshkol'nika**. – Moskva: Akademiya, 2016.
10. **STEAM yondashuvi asoslari maktabgacha ta'limda**. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish vazirligi, 2022.

Ishtirokchi anketasi

Hudud	Qaraqalpaqstan Respublikasi Nukus shahri
Muallif F.I.SH	Baytileuova G‘ulzar Maxset qizi
Ish joyi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagogik Mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrası
Lovozimi	katta o‘qituvchi
Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni	yo‘q
Maqola, máruza nomi	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg‘ulotlar mazmuni, shakli va metodlari.
Shóba nomi	
Bağlanish ushın telefon raqam	+99893866 4949
Elektron manzıl (e-mail)	